

**TASHQI IQTISODIY ALOQA MOHIYATI VA MAZMUNI HAMDA  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KESIMIDA TAHLILI**

*Xidirov Muzaffar Abdimo'minovich*

*Tel: +998 99 566 75 75*

*Email: zafarxakimov39@gmail.com*

*Shokirov Humoyiddin Baxriddin o'g'li*

*Tel: +998 99 944 38 53*

*Email: shokirovhumoyiddin@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi keng ma'noda tashqi iqtisodiy aloqa va tashqi savdo haqida tushuncha berilgan. Hamda ushbu iqtisodiy termin mohiyati va vazifalari to'laqonli tushuntirib berilgan. Bundan tashqari mamlakatimiz hududida amalga oshirilgan 2021-2022-yillar oralig'idagi tashqi savdo aylanmasi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tashqi iqtisodiy aloqa, iqtisodiyot, tashqi savdo, moliya, eksport, import.

**Abstract:** This thesis provides an understanding of foreign economic relations and foreign trade in a broad sense. The essence and functions of this economic term are fully explained. In addition, the foreign trade turnover between 2021 and 2022 in the territory of our country has been highlighted.

**Key words:** Foreign economic relations, economy, foreign trade, finance, export, import.

**Аннотация:** Данный тезис дает понимание внешнеэкономических связей и внешней торговли в широком смысле. Подробно объяснены сущность и функции этого экономического термина. Кроме того, освещен внешнеторговый оборот за 2021-2022 годы на территории нашей страны.

**Ключевые слова:** Внешнеэкономические связи, экономика, внешняя торговля, финансы, экспорт, импорт.

**Kirish.** Tashqi iqtisodiy aloqa, bu iqtisodiy jarayon davrlar ichida katta ahamiyatga ega. Qaysi mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqaning eksport ulushi katta bo'lsa ushbu mamlakat shubhasiz rivojlangan hech bo'lmaganda rivojlanayotgan mamlakat qatoriga kiradi. Tashqi iqtisodiy aloqaning muhimligiga yaqqol misol:

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi vazirlar mahkamasi qarori,

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi vazirlar mahkamasi qarori bunga yaqqol dalildir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqa muhim ekanligini tushundik ammo tashqi iqtisodiy aloqa nima? Nima vazifani bajaradi? Nima uchun mamlakatlar orasida tashqi iqtisodiy aloqa muhim ahamiyat kasb etadi. Endigi e'tiborimizni ushbu savollarga javob berishga qaratsak.

Tashqi iqtisodiy aloqa jo'n ma'noda ikki mamlakatning bir-biri bilan tovar ayri boshlash jarayonidir. Har bir mamlakat o'zida yetarli hamda ishlab chiqarishi shaklangan mahsulotini boshqa bir mamlakatga taklif etadi. Bu mahsulotga qiziqish bildirgan har bir davlat bu taklifni qabul qiladi va ikki mamlakat orasida savdo aloqasi amalga oshadi. Bu tashqi savdo aylanmasining bir taraflama sodda ko'rinishi.

*Tashqi savdo bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan savdosi hisoblanadi. Mamlakatdan tovarlar chikarish eksport va mamlakatga tovarlar kiritish importni tashkil etadi. Eksport va import yig'indisi mamlakatning Tashqi savdo aylanmasini hosil qiladi.*

*Eksport — tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi*

*Import (lot. importare — „olib kirish“) — biror molni mamlakatga sotish uchun olib kirish. Import mamlakati, deganda import qilinayotgan mol ishlab chiqarilgan mamlakat tushuniladi.*

Tashqi savdoning rivojlanishi asosida xalqaro mehnat taqsimoti va D. Rikardo asoslab bergan qiyosiy ustunlik qoidasi yotadi. Bu kridaga ko'ra alohida sharoitlarning mavjudligi, xususan, qulay geografik joylashuv, noyob tabiiy resurslar ayrim mamlakatlarga tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishda muayyan ustunliklar beradi. Mamlakat o'zining qiyosiy ustunligidan foydalanib ayrim tovar turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashadi, mahsulotlarini boshqa mamlakatlarga ham sotish maqsadida katta miqdorda va yuqori sifatda ishlab chiqarishga xarakat qiladi. Bunday tovar va xizmatlarni uzlarida ishlab chiqarmaydigan boshqa mamlakatlar, ishlab chiqarganda ham ularga ketadigan sarf-xarajatlarning nisbatan yuqoriligini hisobga olib, tashqaridan tovar va xizmatlarni kiritish yo'lini tutadilar.

Mamlakatlar o'rtasida savdosotiqni rivojlanishi ikki tomonlama foyda olish imkonini beradi. Tashqi savdo mamlakatlar aro iqtisodiy munosabatlarning eng oddiy shakli hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy aloqa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Jahon xujaligining rivojlanib, globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi bilan Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi ahamiyati ortib boradi. Uning asosiy sub'yektlari — davlatlar, transmilliy kompaniyalar, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hisoblanadi. 20-asrning 80-yillaridan e'tiboran, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik doirasi kengayib, iqtisodiy munosabatlarni keng ko'lamda qamrab oldi, tashki va xalqaro savdo, kredit munosabatlari, valyuta va to'lov — hisob-kitob sohasi, migratsiya va

kapital chiqarish, mintaqaviy integratsiya, transmilliy kompaniyalarni tashkil etish va kreditmoliya intlarini shakllantirish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solib, ilmiytexnika va ishlab chiqarish sohalarida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik uning sub'yektlari iqtisodiy manfaatlarini milliy chegaralardan tashqarida ro'yobga chikarishning eng maqbul yo'li hisoblanadi. Jahon davlatlari o'zlarining tub ichki manfaatlarini amalga oshirish maqsadida, ijtimoiy-iqgisodiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning muayyan yo'nalishlarida faollik ko'rsatadilar. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning axborot texnologiyalari savdosida, xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy institutlar faoliyatida yuqori mavqe bilan ishtiroki kuzatiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning ishchi migratsiyasi, kapital kiritish, tovarlar importi yo'nalishlariga ustuvorlik beradilar.

Bundan tashqari tashqi savdo aylanmasini amalga oshirish uchun yana bir muhim omil mavjud. Yana ayri boshlash jarayonida qiymat o'lchovi. Har bir davlat ichki iqtisodini tartibga solish uchun pul emissiya qiladi. Ammo bu ichki bozorda qiymat o'lchovi vazifasini bajara oladi holos. Biz davlatlar aro iqtisodiy aloqa qilar ekanmiz bizga har bir davlat tan olgan qiymat o'lchovi kerak bo'ladi. Bu o'lchov jahon pullari deb nomlanadi.

*Jahon pullari umumiy universal to'lov vositasi sifatida tan olingan, xalqaro miqyosda hamma uchun xarid vositasi, boyliklarning umumiy o'lchov birligi, qiymatning xalqaro ifodasi bo'lgan pullar; jahon bozorida amal qiluvchi yuksak likvidli pullar hisoblanadi.*

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maskur tadqiqotda statistik jadval va grafiklar, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy, mahalliyolimlarning tadqiqot ishlari va rasmiy statistik internet saytlaridan keng foydalanilgan.

#### **Tahlil va natijalar.**

2022- yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan respublikamizning tashqi savdo aylanmasi 13.2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etibdi. Bu O'zbekiston Respublikasi 2021-yil tashqi savdo aylanmasiga nisbatan 5.6 mlrd. AQSh dollariga yoki 74.8% ga ko'payganini bildiradi. TSAda eksport hajmi 5 772,7 mln. AQSH dollariga (238,7 % ga ko'paydi) va import hajmi 7383,1 mln. AQSH dollariga (44,6 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 1 610,4 mln. AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etib qoyildi.

	2021-yil	2022-yil	O'sish suratlari % da	Jamiga nisbatan % da
Tashqi savdo aylanmasi	7 525.8	13 155.8	174.8	x

<b>Eksport</b>	<b>2 418.6</b>	<b>5 772.7</b>	<b>2.4m.</b>	<b>100.0</b>
tovarlar	1 896.1	2 186.8	115.3	37.9
xizmatlar	469.5	567.7	120.9	9.8
oltin	-	2 970.9	-	51.5
<b>Import</b>	<b>5 107.2</b>	<b>7 383.1</b>	<b>144.6</b>	<b>100.0</b>
tovarlar	4 745.3	6 853.4	146.4	92.8
xizmatlar	361.9	529.7	x	7.2
<b>Saldo</b>	<b>-2 688.6</b>	<b>-1 610.4</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
tovarlar	-2 849.2	-1 648.4		x
oltinsiz	-2 849.2	-4 666.6	x	x
xizmatlar	107.6	38.0	x	x
<b>Eksport (oltinsiz hajm)</b>	<b>2 365.6</b>	<b>2 754.5</b>	<b>116.4</b>	<b>x</b>

**1-rasm.** Tashqi savdo aylanmasi (yanvar-mart, mln. AQSh dollari)<sup>1</sup>

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston shular jumlasidandir. Qolgan 17 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda. Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 34,4 % ulush bilan 4 528,5 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,8 % ulush bilan 108,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

	Mln AQSh dollari	O'sish surati, % da
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>13 155.8</b>	<b>174.8</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	140.4	90.8
hududlar		
Andijon	952.5	142.3
Buxoro	305.8	140.2
Jizzax	154.3	168.2
Qashqadaryo	146.7	159.9
Navoiy	265.4	99.8
Namangan	300.5	137.1

<sup>1</sup> UZSTAT "Tashqi iqtisodiy faoliyat"

Samarqand	551.0	144.7
Surxondaryo	108.2	93.3
Sirdaryo	203.1	115.2
Toshkent	1 347.0	121.9
Farg'ona	530.3	157.3
Xorazm	110.9	77.2
<i>Toshkent sh.</i>	4 528.5	138.9

**2-rasm.** O'zbekiston Respublikasining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi (2022-yil yanvar-mart)<sup>2</sup>

2022- yilning yanvar-mart oylarida, O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi yoki 30,0 % i MDH davlatlariga to'g'ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilning mos davriga nisbatan ulushi 10,2 % ga kamaygan. O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-mart holatiga ko'ra 3 948,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – 1 210,6 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import – 2 738,0 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi. O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (47,2 %), Qozog'iston (25,1 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (5,7 %) davlatlari bilan qayd etildi.

Rossiya Federatsiyasi	Qozog'iston
TSA – 1 865.2	TSA – 992.8
Eksport – 484.9	Eksport – 231.0
Import – 1 380.3	Import – 761.8
Qirg'iz Respublikasi	Turkmaniston
TSA – 226.4	TSA – 186.8
Eksport - 183.1	Eksport – 32.0
Import – 43.3	Import – 154.8
Tojikiston	Ukraina
TSA – 141.7	TSA – 140.1
Eksport – 103.4	Eksport – 35.6
Import – 38.3	Import – 104.5
Belarus	Ozarbayjon
TSA – 91.0	TSA – 33.0
Eksport – 20.6	Eksport – 22.1

<sup>2</sup> UZSTAT “Tashqi iqtisodiy faoliyat”

Import – 70.4	Import – 10.9
<b>Moldova Respublikasi</b>	<b>Armaniston</b>
TSA – 7.4	Tsa – 4.8
Eksport – 5.4	Eksport – 3.8
Import – 2.0	Import – 1.0

**3-rasm.** O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi (2021-yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)<sup>3</sup>

**Xulosa va takliflar.** Mamlakatimizda tashqi savdo, eksport hajmini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- Mamlakatimizda ichlab chiqarish jarayonini oshirish uchun tadbirkorlarga imtiyozlar (past foizda kredit, rag‘batlantirish, qo‘shimcha ko‘mak, soliqdan qisman ozod etish va boshqalar) berish;

- Mamlakatimizda har bir aholi tadbirkor faoliyati amalga oshirish uchun bir tashkilot ochgan holda savodxonligini oshirishga yo‘naltirish;

- Mamlakatimizga xorij investorlarini jalb qilish va ular bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirish;

- Mamlakatimizda tashqi savdoni amalga oshirish uchun rivojlangan mamlakatlarning sinalgan uslubini o‘zimizga moslagan holda joriy etish;

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda tadbirkorlarga kengdan-keng imkoniyatlar yaratish ekanimiz bu ularga qo‘shimcha rag‘batlantirish bo‘ladi. Bu qo‘shimcha imkoniyatlar, ularga tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga yoki yangi tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga turtki bo‘la oladi. Bu tadbirkorlarga shu bilan birga davlatimizga ham foyda hisoblanadi. Mamlakatimizdagi aholini tadbirkorlikka jalb qilishdan oldin ularni bu jarayon bilan qay darjadan tanish ekanligini o‘rganishimiz va bu bilimlarini kengaytirish uchun maxsus guruh yoki tashkilotlar tashkil etishimiz kerak bo‘ladi. Bu tashkilotlarga asosiy maqsad qilib tadbirkorlarning mahsulotlarini eksport qilishning siyosiy va iqtisodiy jihatlari tushuntirish belgilansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tashqi aloqani rivojlantirish uchun yana bir yo‘l xorij investorlarini bizning mamlakat tadbirkorlari bilan hamkorlik qilishga yo‘naltirish va hamkorlikda ish yuritish. Bu jarayonlarni amalga oshirishda rivojlangan mamlakatlarning uslubini o‘zimizga mos ravishda joriy etishimiz ham sifat jihatdan ham vaqt tejash hisobidan bizni mamnun etadi.

Umuman olganda tashqi savdo hozirgi hozirgi davrda davlatlar ichida muhim faoliyat hisoblanadi. Biz bunga e‘tibor qaratmasdan ilojimiz yo‘q.

<sup>3</sup> UZSTAT “Tashqi iqtisodiy faoliyat”

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A.I. Turayeva “Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati”
2. Olimqulov Yashnar Maxmadamin o'g'li, Narziyev Furqat Fayzullo o'g'li “O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi bilan iqtisodiy aloqasi”
3. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tashqi\\_savdo](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tashqi_savdo)
4. <https://lex.uz/docs/-404863>
5. <https://lex.uz/docs/-350145>
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Eksport>
7. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Import>
8. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jahon\\_pullari](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jahon_pullari)
9. UZSTAT “Tashqi iqtisodiy faoliyat”